

## IJTIMOIY TARMOQLAR VA YOSHLAR MULOQOT MADANIYATINING O'ZGARISHI

*Umaraliyeva Santalatxon Ilyamin qizi  
ADCHTI Ingliz tili va adabiyoti talabasi  
Yaqubjonova Ro'zixon Mirkomil qizi  
ADCHTI, ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ijtimoiy tarmoqlarning yoshlari o'rtasidagi muloqot madaniyatiga ta'sirini o'rganadi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijtimoiy hayotida muhim o'ren egallaydi va muloqot uslublarini, hissiy ifodalashni va o'zaro aloqalarni o'zgartirishi mumkin. Maqolada, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy, psixologik va madaniy jihatlari ko'rib chiqiladi. Yoshlar muloqoti va h komunikatsiya madaniyati o'rtasidagi o'zgarishlar, ijtimoiy tarmoqlarning ta'lif va ijtimoiy ishlar uchun qanday imkoniyatlarni taqdim etishi haqida ham fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy tarmoqlar, yoshlari, muloqot madaniyati, kommunikatsiya, ijtimoiy aloqalar, hissiy ifoda, onlayn platformalar, psixologiya, madaniyat.

**Аннотация:** Данная статья изучает влияние социальных сетей на культуру общения среди молодежи. Социальные сети занимают важное место в социальной жизни молодежи и могут изменять стили общения, эмоциональное выражение и взаимодействие. В статье также рассматриваются социальные, психологические и культурные аспекты социальных сетей. Обсуждаются изменения в общении молодежи и культуре коммуникации, а также возможности, которые социальные сети предоставляют для образования и социальной работы.

**Ключевые слова:** социальные сети, молодежь, культура общения, коммуникация, социальные отношения, эмоциональное выражение, онлайн-платформы, психология, культура.

**Annotation:** This article examines the impact of social networks on the communication culture among youth. Social networks play a significant role in the social lives of young people and can alter communication styles, emotional expression, and interpersonal relationships. The article also explores the social, psychological, and cultural aspects of social networks. It discusses the changes in youth communication and culture of communication, as well as the opportunities that social networks provide for education and social work.

**Keywords:** social networks, youth, communication culture, communication, social relationships, emotional expression, online platforms, psychology, culture.

Bugungi kunimizni internet tarmog'isiz tasavvur etishimiz qiyin. Bilamizki 21-asr axborot texnologiyalari asri, shunday ekan zamонавий тараққиёт билан hamnafas

bo'lishimiz kerakligi hech kimga sir emas. Bizni texnologiyalar makonidagi bilimimizning qanchalik keng ekanligi jamiyat taraqqiyotidagi o'rnimizni belgilab berayotgani ham yangilik emas. Har bir sohada yangi tehnologiyalarni hayotga keng targ'ib qilinayotgani ham ijtimoiy hayotimizga bir qator yengilliklar berayotgani juda ham quvonarli holat. Lekin tan olish kerakki bunday qulayliklardan noto'g'ri maqsadda foydalanayotganlar talaygina.

Hozirgi paytda internet tarmog'idan foydalanish juda keng suratda rivojlanib bormoqda. Bu insonlarga juda keng imkoniyatlar eshiklarini ochib berayotgani hech kimga sir emas. Ma'lumotlarni uzatish, ta'lim olish, ko'ngil ochar tarmoqlar va h.k. Internet haqida gap ketar ekan, ijtimoiy tarmoqlarni gapirmaslikning umuman ilojisi yo'q. Bu haqda Beruniy Sultonovich Alimov (bloger,tarjimon,sobiq diplomat,filologiya fanlari doktori,dotsent) o'zining "Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli" nomli maqolasida quyidagi fikr yuritadi. Ijtimoiy tarmoqlar aslida kimlarga va nima uchun kerak degan savolga aniq javob yo'q. Ijtimoiy tarmoqlarning o'zi bu savolga mantiqan "insonlar ortasidagi muloqotni ta'minlash, turli dunyo xabarlaridan boxabar etish, do'st orttirish, o'zining ikkinchi bo'lagini "sevgisini" topishda insonlarga yordam berish" kabi maqsadlari borligini bildirishadi, ammo bu bilan ular yoshlар ongiga "ommaviy madaniyat"ni singdirilib, ularning ongini umuman yot bo'lgan romantik g'oyalar, xom xayollar bilan to'ldiradi.

Buning tub mohiyatiga nazar solsak, kimlarningdir iqtisodiy yoki siyosiy maqsadlari yotishini ko'rish mumkin. Chunki, o'z g'oyalarini sezilarsiz tarzda singdirib bo'lgach, ijtimoiy tarmoqlar turli chaqiriq va reklamalar orqali avval moliyaviy so'ngra, hatto, yashirin siyosiy maqsadlarini ham amalga oshirishi mumkin. "Umuman Internetning paydo bo'lishi bilan hayotning juda ko'p aspektlari, jumladan, kundalik maishiy xizmatlardan tortib, biznes va menejment, yuridik va konsullik xizmatlari va hatto davlat boshqaruvigacha birin-ketin virtual dunyoga ko'cha boshladи. Eng muhimi, u yoshlarning an'anaviy muloqot shaklini tubdan o'zgartirib yubordi. Olis masofadan turib nafaqat eshitish, balki ko'rish imkoniyatining yuzaga kelishi virtual suhbatlarni keskin ommalashtirdi.

Keyingi 15-20 yil davomida dunyo mamlakatlari aholisi, shu jumladan, o'zbekistonlik yoshlар hayotida mobil aloqa urf tusini olgan bo'lsa, hozirgi davrga kelib mobil uskunalardagi WhatsApp, ICQ, MSN Messenger va Telegram orqali matnli muloqot (ing. text messaging) ommaviylik kasb etmoqda. Qayd etish kerak, bugungi kunda dunyo aholisining qariyb yarmi – ya'ni 3 mlrd.ga yaqin kishi turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda. Shulardan eng katta qismi – 2 mlrd. odam "Facebook"da (<https://napoleoncat.com> sayti bergan ma'lumotga ko'ra), O'zbekistonda "Facebook" tarmog'idan foydalanuvchilar 1 millionga yaqinlashib qolgan. Ular o'rtacha 25-34 yoshda bo'lib, 65,5 foizini erkaklar, 34,5 foizini xotin-qizlarimiz tashkil etar ekan. Ayni paytda dunyoda 1 mlrd.lik auditoriyaga ega Instagram O'zbekistonda 1.586.500 nafar

foydalanuvchiga ega. 2.476.590lik Facebook esa mamlakatimizda 686.400 kishini birlashtirgan. 200 mln.lik Telegram – O'zbekistonda 18 mln. kishiga xizmat ko'rsatmoqda. Darhaqiqat ushbu raqamlar tobora kengayib borayotgani, bugungi kunda hech kimni ajablantirmasligi bor gap. Zamonaviy mobil qurilmalardan foydalanadigan biror bir inson yo'qki unda ijtimoiy tarmoqlarni kuzatmaydigan. Ijtimoiy tarmoqlarning juda ko'plab turlarini sanab o'tishimiz mumkin "Odnoklassniki.ru", "Telegramm", "Facebook", "Instagramm", "TikTok", "Bigolive", "Snapchat", "Viber", "Vkantakt", "Whatsapp", "Twitter" buqatorni yana uzoq davom etishimiz mumkin. Internet tarmoqlarining rivojlanish fonida "Kibermakon" tushunchasi ham keng qo'llanila boshladi. Buni Internet tarmog'ini ichidagi ma'lumotlar dengizi deyishimiz mumkin. Internettarmog'idan olinadigan, unga yuklanadigan ma'lumotlarni hajm jihatidan juda katta ekanligi tufayli har bir ma'lumotni kuzatishning ilojisi yo'q.

Albatta bu haqida bosh qotiradigan mutasaddi tashkilotlar bor ammo ularning ham imkoniyati ma'lum darajada cheklangan. Shuni inobatga olib keng tarqalayotgan ijtimoiy tarmoqlarning mavjud mafkuraviy tahdidlarini gapirmaslikning ilojisi yo'q. Negaki, Bu haqda Chingiz Aytmatov shunday deydi: "Tuya terisini inson boshiga kiydirish shart emas, endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi". Shu jihatdan qaraganda yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi juda katta fojiadir. Chunki globallashuv butun dunyoda mafkuraviy tasir o'tkazish ko`lamini juda oshirib yubordi. Inson o`z fikriga, dunyoqarashiga ega bo'lmasa, insonga bo'ladigan ma'naviy tahdidlarga bardosh bera olishi juda qiyin bo'ladi. O'zbekiston xalq yozuvchisi O'. Hoshimov aytganlaridek, "Bu dunyo – muttasil aylanib turadigan murakkab mexanizm. Odamlar o'sha mexanizmning kichik bir vintchasi, xolos. Har bitta vintcha o'z vazifasini ado etmog'i lozim. Bittasi ishlamay qolsa, ko'rasan nima bo'lismeni! Butun boshli mexanizm chok-chokidan so'kilib ketadi". Taassufki, yoshlar orasida diniy ta'llimoti yetarli bo'limgan yoshlарimiz har xil islomiy kanallarga ulanib, o'zlarining mafkuraviy g'oyalarini buzmoqdalar. Bunga sabab bo'layotgan ayrim "dinda ilmi bo'limganlar" dinimiz nomi bilan faoliyat olib borayotgan qo'shtirnoq ichidagi chalasavodlar din niqobi ostida o'zlarining buzg'unchilik g'oyalarini yoyib, mamlakatimizning o'spirin yoshlarni yo'lidan urmoqdalar. Bolalar va biz yoshlarningning hovli va ko'chalardagi muloqotlarimiz hozirda haqiqiy hayotda asosan, aynan, cheti-chejarasi yo'q ijtimoiy tarmoqlarga ko'chdi.

Mazkur muloqotlar bolalarga va biz yoshlarga shunisi bilan ham qiziqroqki, avvalo, tarmoqda ko'proq «do'st» orttirish imkonи mavjudligi. Tarmoqda muloqot qilar kanmiz, biz yoshlar o'zimizni omadli bola qilib ko'rsata olamiz. O'zgalar roliga o'zlarimizni taqdim etib, turli yolg'on dunyolarga berilib ketamiz. Ba'zi uyatchang va tortinchoq yoshlarni ehtimol tarmoqdagi muloqotlarning foydali jihatlari bordir, vaqt kelib, haqiqiy hayotda bu muloqotlar o'z samarasini ham berishi mumkin. Internet — bu deyarli barcha qiziqishlarni qondirish makonidir. So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar butun dunyodagi yoshlarni hayotida davom etayotgan o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq ravishda eng muhim

voqealardan biriga aylanishdi. Facebook, Instagram, Twitter, TikTok kabi platformalar insonlarning bir-birlari bilan muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirib, yangi kommunikatsion uslublar, madaniyat va odatlarni shakllantirishga yordam beradi. Yoshlar uchun ushbu tarmoqlardan foydalanish, ularga o‘z fikrlarini, hissiyotlarini va tajribalarini ifoda etish imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy tarmoqlarning muloqot madaniyatiga ta’siri ijtimoiy izolyatsiya hissi va taraqqiyotga ham ta’sir etadi. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rdiklari kontentlar natijasida o‘zlariga bo‘lgan ishonchni tug‘dirishi yoki kamaytirishi mumkin. Bunday holatlar tanqidiy qobiliyatni rivojlantirish uchun foydali bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lumotlar tez tarqaladi va yoshlarda yangi bilimlarni olishga bo‘lgan qiziqishni rag‘batlantiradi.

Buning natijasida, onlayn platformalarda o‘zaro ta’sir, ta’lim va professional rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Muloqot Madaniyatining O‘zgarishi Ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, yoshlarning kommunikatsiya madaniyatini ham o‘zgartiradi. Ushbu o‘zgarishlar: sodda va tez o‘tkazish: Keng tarqagan aqliy tushuncha va qisqa xabar iboralari bilan birgalikda tez korxona muhokamalari dialoglarni shunchaki qisqarishiga olib kelishi mumkin. Moddiy ta’sir: Yoshlar ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlarda mashhur shaxslarning munosabatlari orqali kommunikatsiya me’yorlarini shakllantiradi va o‘zaro muloqotni bosqichma-bosqich o‘zlarining oddiy fikrlashlari orqali o‘zgartiradi. An’ana va Kengayish: Onlayn aloqalar ko‘pincha real hayotdagi munosabatlarni kuchaytiradi va kuchaytiradi, bu esa an'anaviy ijtimoiy aloqalar va tizimlarning yangi shakllarini yaratadi. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar muloqotiga ta’siri bevosita o‘zgarishi va zamon bilan birga kelayotgan qonuniyatlarga moslashishni talab qiladi. Yoshlar o‘rtasida muloqot madaniyati o‘zgarishi esa ijtimoiy aloqalar, hissiy ifoda va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashda muhimdir. Har qanday ijtimoiy o‘zgarishlar ijobiy va salbiy tomonlarga ega bo‘lishi sababli, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni doimiy ravishda boshqarish va innovatsiyalash uchun zamonaviy yondashuvlarni qidirish zarur.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.”Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni .  
2016-yil 24-avgust
- 2.”Yoshlar va axboriy psixologik xavfsizlik” Qodirov U. 2014-yil
- 3.O’tkir Hoshimov “Tushda kechgan umirlar” asaridan
- 4.”Xoja Buxoriy” o’rta maxsus islom bilim yurti.Nilufar  
Ahadovna//<https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=5914//>
- 5.Beruniy Alimov “Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli” maqolasidan//<https://beruniyalimov.uz/archives/705//>
6. P.Taranov. Yuqori ong ensiklopediyasi, 1999 y